

BANK HISOBVARAG'I SHARTNOMASI

2023 yil «_____» _____

_____ -son

Farg'ona shahar.

Keyingi o'rinlarda “Bank” deb nomlanuvchi “Madad Invest bank” aksiyadorlik tijorat banki nomidan ishonchnoma asosida ish yurituvchi Amaliyot boshqarmasi boshlig'i _____ tomonidan va keyingi o'rinlarda “Mijoz” deb nomlanuvchi _____ nomidan _____ asosida ish yurituvchi _____ ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 Mazkur shartnoma bank tomonidan mijozning arizasiga ko'ra amaldagi qonun xujjatlari talablariga muvofiq, bank hisobvaraqlarini (keyingi o'rinlarda «hisobvaraqlar» deb yuritiladi) ochish, uning hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvarag'idan tegishli pul mablag'larini o'tkazish va to'lash, kassa xizmatini ko'rsatish hamda hisobvaraqlar bo'yicha boshqa amaliyotlarni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Bank tomonidan **qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, qimmatli qog'ozlar hisobini yuritish va saqlash, qimmatli qog'ozlarni boshqarish, xujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish, kafolat va kafillik xatlarini berish, kredit ajratish, faktoring, moliyaviy lizing, anderrayting, konsalting, axborot, masofaviy xizmatlar ko'rsatilishi** hamda **xalqaro bank amaliyotiga muvofiq boshqa xizmatlar** ko'rsatilishi va ularga belgilanadigan foizlar stavkasi va **xizmatlar haqi tarifi** alohida shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.3. Mijoz tomonidan mablag'larni **jamg'ariladigan va muddatli depozitlarga joylashtirish masalalari** alohida shartnomalar bilan tartibga solinadi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1 Bank mazkur shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.2. Mijozning topshirig'iga ko'ra qonunchilikka muvofiq hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatadi hamda qonunchilikda nazarda tutilgan barcha hisob-kitob va kassa amaliyotlarini amalga oshiradi. Jumladan:

a) mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini tegishli to'lov xujjati bankka kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay mijoz hisobvarag'iga kiritadi;

b) mijoz hisobvarag'idan pul mablag'larini, tegishli to'lov xujjatlari asosida, o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajaradi;

v) mijozning qarzi majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalarini qonunchilik doirasida ijro qiladi;

g) amaldagi qonunchilikka muvofiq mijozdan naqd pul mablag'larini qabul qiladi va beradi;

O'z navbatida, mijoz hisobvarag'i amaldagi qonunchilikka muvofiq yopilib, qoldiqlari 29842-«Harakatsiz depozitlar» hisobvarag'iga o'tkazilgan taqdirda, ushbu qoldiq summasiga foiz hisoblamaydi;

j) boshqa hisob-kitob, kassa xizmatlarini ko'rsatadi (bank va mijoz o'rtasida alohida shartnomalar asosida tartibga solinadigan munosabatlar bundan mustasno).

2.3. Mijoz hisobvarag'idan faqat uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan bankka to'lov xujjati kelib tushgan kuni yoki kelgusi ish kunidan kechiktirmay mablag'larni (akseptsiz to'lov talabnomasi va inkasso topshiriqnomasi bundan mustasno) hisobdan chiqaradi.

Mijozning hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmagan yoki yetarli mablag' bo'lmagan taqdirda, Bank to'lanmagan to'lov xujjati summasini 2-sonli kartotekaga joylashtiradi (qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

2.4. Mijozga belgilangan jadvalga muvofiq (dam olish kunlaridan tashqari) muayyan muddatda xizmat ko'rsatadi.

2.5. Mijoz topshirig'iga asosan hisob-kitob amaliyotlarini O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradi.

Pul hisob-kitob xujjatlari bank tomonidan ijroga faqat mijozning taqdim qilgan muhr va imzo namunasi varoqchada ko'rsatilgan shaxslar va mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi. Masofadan xizmat korsatish dasturlari orqali belgilangan tartibda elektron ko'rinishda qabul qilinadi.

2.6. To'lov xujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov xujjati bankka kelib tushgan ish kuni (agar amaliyot kuni davomida kelib tushgan bo'lsa) yoki kelib tushgan ish kunining keyingi ish kunidan (agar amaliyot kuni tugagandan keyin kelib tushgan bo'lsa) kechiktirmay uning ijrosini ta'minlaydi.

2.7. Mijozni kassa xujjatlari (naqd pul topshirish e'lonnomalari va boshqa zarur blankalar) bilan bepul ta'minlaydi.

2.8. Mijozning talabiga muvofiq uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga hisobvaraقدan ko'chirmalar va boshqa tegishli xujjatlarni beradi.

2.9. Mijozga taalluqli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

2.10. Mijoz hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini but saqlanishini ta'minlaydi.

2.11. Mijozning hisobvarag'ida erkin mablag' bo'lganda yoki mablag' yetishmaganligi sababli mablag'larni band qilishga bron mavjud bo'lgan hollarda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya pullarini birinchi talabdayoq berilishini ta'minlaydi.

2.12. Mijozning talabiga ko'ra ariza, shartnoma, kredit to'lov topshiriqnomalari, kredit to'liq to'langanligi haqida ma'lumotlarni bepul (bitta bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha bir marta) beradi.

2.13 Mijoz mazkur shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.14. Bankka hisob-kitob amaliyotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xujjatlarni taqdim etadi.

2.15. Bankda belgilangan ish vaqtiga va Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom talablariga rioya etgan holda to'lov xujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish talablariga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi me'yoriy xujjatlari talablarini bajaradi.

2.16. Mijozning naqd pulga bo'lgan ehtiyojini aniqlash uchun har chorak boshlanishidan 30 kun oldin bankka belgilangan shaklda kassa buyurtmasini taqdim etadi.

2.17. Hisobvaraقدa mablag' mavjud bo'lganda ish haqi, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga muvofiq pul chekini va ish haqi bilan bog'liq soliq va boshqa majburiy ajratmalarini o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasini bankka naqd pul olish kunidan bir kun oldin taqdim etadi. Ish haqi bilan bog'liq soliq va boshqa majburiy ajratmalari bo'yicha taqdim etgan to'lov topshiriqnomasi ijrosi ta'minlangandan keyin pul cheki bo'yicha mablag'lar olinadi va qat'iy belgilangan maqsadlarda foydalaniladi.

2.18. To'lovlarni amalga oshirish uchun o'zining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lariga ega bo'lishi lozim.

2.19. Ko'rsatilgan bank xizmatlari bo'yicha to'lovlarni mazkur shartnomaning 5-bo'limida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

2.20. Bank talabiga ko'ra boshqa davlatlar sub'ektlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshirilgan eksport-import va boshqa amaliyotlari to'g'risida, shuningdek, zaruriyat tug'ilganda, qonunchilik asosida bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.

2.21. Agar mijozning tashkiliy huquqiy shaklida o'zgarish sodir bo'lsa, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 3 ish kuni mobaynida, yuridik manzilida o'zgarish sodir bo'lganda esa, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 5 kun mobaynida bankka taqdim qiladi.

2.22. Mijoz O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ga qat'iy rioya etadi.

2.23. Mijoz o'zini, rahbari, ta'sischilarini, shuningdek, bankni Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro sanksiyalarga duchor bo'lmaslik chorasini ko'radi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1 Bank mazkur shartnomaga asosan:

3.2. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankning me'yoriy xujjatlari, bank tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar, shuningdek, hisob-kitob xujjatlarini rasmiylashtirish va o'z muddatida taqdim qilish bo'yicha yo'l qo'yilgan tartibbuzarlik holatlari mavjud bo'lganda, Bank hisob-kitob, kassa amaliyoti bajarishni to'xtatish chorasini ko'rish, ya'ni, qonunchilik xujjatlariga muvofiq amaliyotni to'xtatib turish hamda qonunchilikka zid bo'lgan amaliyotlarni bajarishni rad etish;

3.3. Mablag'larning but saqlanishi va ularning mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlash;

3.4. Qonunchilikda belgilangan tartiblarga muvofiq, mijoz hisobvarag'idan byudjet daromadiga, byudjetdan tashqari fondlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan to'lovlarni hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda mijozning roziligisiz (akseptsiz) uning hisobvarag'idan mablag'lar o'tkazish;

3.5. Bank amaliyotlarini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi xujjatlarning haqiqiylikiga shubha tug'ilganda, amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ularni imzolash huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga xabar berib, amaliyotlarni amalga oshirishni to'xtatish;

3.6. Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida 2-sonli kartoteka mavjud bo'lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisovaraqlari, shuningdek, boshqa banklarda ochilgan (Hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli, akkreditiv jamg'arma va muddatli depozit hisobvaralari bundan mustasno) hisobvaraqlardan mablag'larni mijozning qarz majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar asosiy depozit hisobvaraqa o'tkazish va ikkilamchi hisobvaraqlardagi amaliyotlarni to'xtatib qo'yish;

3.7. Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish yo'li bilan hisobvaraqlardan tegishli summalarni mijozning roziligisiz hisobdan chiqarish;

3.8. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan asoslar, halqaro talablar, shuningdek, qaysidir sanksiyalar mavjud bo'lgan taqdirda, oldindan ogohlantirmasdan hisob raqam bo'yicha amalga oshiriladigan amaliyotlarni rad qilish yoki to'xtatish, va/yoki pul mablag'larini yoki hisob raqamni vaqtincha to'xtatib turish ;

3.9. Byudjetga to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, Bank qarzdor mijozning so'mdagi mablag'lari yetishmaganda va valyuta hisobvarag'idagi mablag'lari mavjud holatda, soliq organlarining bergan taqdimiga ko'ra so'zsiz ravishda uning valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida shu kunda belgilangan kurs bo'yicha byudjet oldidagi qarz hajmini to'liq qoplashga yetarli miqdorda sotilishini amalga oshirish huquqlariga ega.

3.10. Bundan tashqari, Bank o'z majburiyatlari va javobgarligiga oid masalalar yuzasidan mijozning talablariga nisbatan u bilan bog'liq munosabatlarning barcha davrlarida e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

3.11. Bank O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni

legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga qat'iy rioya etgan holda;

- Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali amaliyotlar aniqlangan taqdirda bajarilgan amaliyotlarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatni ko'rsatishni to'xtatib turish, ushbu xizmatlarni ko'rsatishni rad etish;

- Mijoz shubhali amaliyotlar amalga oshirilganligi haqidagi gumonlar mavjud bo'lganda, xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada qayd etilgan shaxs tomonidan amaliyotlar amalga oshirilayotganligini mijozning joylashgan yeri (pochta manzili) shartnomada belgilangan manzil bo'yicha o'rganish huquqiga ega;

- Mijoz tomonidan shubhali amaliyotlar amalga oshirilganda, ushbu holatlarga aniqlik kiritilgunga qadar xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish;

- Mijoz jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida xizmatlardan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo'lganda, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani o'rnatilgan tartibda bekor qilish;

- Mijozni u joylashgan yeri (pochta manzili) yoki ushbu shartnomada belgilangan manzilda o'rganish jarayonida, Bank mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizom talablariga rioya qilinishini, jumladan pul hisob-kitob xujjatlarining rasmiylashtirilishi, ularning mijozning vakolatli shaxslari (rahbari, bosh hisobchisi) tomonidan imzolanib tasdiqlanishi, ushbu xujjatlar bo'yicha o'tkazmalar faqat imzolash huquqi mavjud bo'lgan shaxs tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshirilishiga, mazkur xujjatlarning saqlanishiga alohida e'tibor qaratadi.

-Mijozdan o'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir xujjatlarni so'rash, talab qilib olish huquqiga ega.

3.12. Bank mijoz hisobvarag'iga kirim qilinayotgan yoki taqdim etilayotgan to'lov xujjatlari bo'yicha tomonlarning xalqaro sanksiyalarga tushgan tushmaganligini, tushish xavfini tekshirishga xaqli.

Bank, mablag'larni oluvchi (yoki uning bankining yoki sotib olayotgan maxsulotining va x.k.z) larning xalqaro sanksiyalarga tushganligi, tushish xavfi mavjud bo'lganda, bank amaliyotini o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, amaliyot miqdorini chegaralash, amaliyotni cheklash (rad etish), to'lov xujjatini ijroga qabul qilmaslik huquqiga ega yoki amalga oshirilayotgan amaliyotlar mijozning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

3.13. Kripto-birja, kripto-do'kon hamda kripto-aktivlar bilan bog'liq bank amaliyotlari amalga oshiruvchi mijoz amaldagi qonunchilik xujjatlariga rioya qilmagan holatlari aniqlanganda bank mijozning topshiriqlarini bajarmaslik, amaliyotlarni to'xtatib turish yoki mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

3.14. Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir qo'shimcha xujjatlar bank tomonidan so'ralgan yoki talab qilinganda xujjatlar mijoz tomonidan to'liq taqdim qilinmasa, bank mijozning topshiriqlarini bajarmasligi, bank amaliyotini to'xtatib qo'yishi, bank hisob varag'ini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

3.15 Mijoz mazkur shartnomaga asosan:

3.16. O'zining hisobvarag'idagi mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etish;

3.17. Hisob-kitob va kassa xizmatlari bo'yicha bankka topshiriqlar berish, inkasso bo'yicha so'rovnomalar berish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarilishini talab qilish;

3.18. Ish haqi to'lash jadvaliga muvofiq asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida mablag'lari va bronni mavjud bo'lganda, qonunchilikka muvofiq naqd pul mablag'larini olish;

3.19. Bank tomonidan shartnomaviy hamda qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar o'z vaqtida yoki to'liq bajarilmaganligi oqibatida ko'rilgan zararlarni o'rnatilgan tartibda qoplab berilishini talab qilish;

3.20. Mijoz bankdan belgilangan joyga borib tushmagan pul mablag'larini qidirish, aniqlash va qaytarishda yordam so'rash;

3.21. O‘zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi va ularda bo‘layotgan o‘zgarish va qo‘shimchalar to‘g‘risida axborotlar olish huquqlariga ega.

4.BANK SIRI

4.1 Bank «Bank siri to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarining sir saqlanishini kafolatlaydi.

4.2 Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlar faqat Mijozning yozma ravishdagi murojaatiga asosan uning o‘ziga yoki uning ishonchli vakiliga berilishi mumkin.

4.3 Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishga faqatgina “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni va amaldagi boshqa qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

4.4 “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun talablari bundan mustasno.

5. BANK XIZMATLARI UCHUN TO‘LOVLARNING MIQDORI VA TO‘LASH TARTIBI

5.1 Fuqarolik Kodeksining 780-moddasiga muvofiq mijoz bankning hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan amaliyot qilish bo‘yicha xizmatlariga mazkur shartnoma va bankda tasdiqlangan amaldagi tariflar asosida haq to‘laydi.

5.2 Bank hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mijoz tomonidan to‘lanadigan xizmat haqi miqdori quyidagicha belgilanadi va to‘lanadi:

a) Mijoz ko‘rsatilgan bank xizmatlari uchun talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i debet aylanmasi summasidan % foiz haq to‘laydi.

b) Tadbirkorlik va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga xisobvaraqlaridan mablag‘larining naqd pulda berilgan pullardan (ish haqi, pensiyalar, nafaqa to‘lovlari, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlardan tashqari) % miqdorida xaq undiriladi.

Bank tomonidan ko‘rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun amaldagi bank tarifiga asosan xaq olinadi.

Xizmat haqi bank tomonidan kunlik avtomatik ravishda hisoblanib, hisoblangan xizmat haqlari mijoz tomonidan xar bir o‘tkazma uchun muomala amalga oshirilgan sanada to‘lab boriladi.

Hisobvaraqda mablag‘ bo‘lmaganda yoki mablag‘ yetarli bo‘lmaganda, to‘lanmagan xizmat haqlari bo‘yicha bank tomonidan akseptsiz to‘lov talabnomalari yoki inkasso topshiriqnomalari mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi va o‘rnatilgan tartibda ijro etiladi.

Mijozning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatganligi uchun tulovlar oy davomida memorial order orqali undiriladi.

5.3 Pul cheki daftarchasini ro‘yxatga olish uchun mijozdan bazaviy xisoblash miqdorining 10% miqdorida haq olinadi. Yo‘qotilgan chek daftarchasi o‘rniga yangi chek daftarchasini berish uchun mijozdan bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobari miqdorida xaq undiriladi.

5.4 Inkasso topshiriqnomalarini qabul qilish, jo‘natish xizmatlari, e‘lonnoma, kirim va chiqim orderlari va boshqa pul hisob-kitob blankalari uchun mijoz bankka haq to‘lamaydi.

5.5 Akkreditiv ochish, unga o‘zgartirishlar kiritish va yopish uchun mijoz Bankka bazaviy xisoblash miqdorining 1 (bir) barobari +QQS miqdorida miqdorda bank xizmati uchun haq to‘laydi.

5.6 Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiya, nafaqa, aliment, stipendiya uchun naqd pul mablag‘larini berilishida **vositachilik haqi olinmaydi.**

5.7. Mijozga bank hisobvarag‘ini ochganlik uchun haq olinmaydi.

5.8. Mijoz hisobvarag‘ining holati to‘g‘risida ma‘lumotnoma berish yoki tasdiqlash uchun va mijoz talabiga ko‘ra so‘rovnomalar tayyorlash va jo‘natish uchun mijozdan bazaviy xisoblash miqdorining 15% +QQS miqdorida bank xizmati uchun haq olinadi.

5.9. Elektron to'lovlar o'tkazish uchun Axborotlashtirish Bosh Markazi xarajatlarining 1,5 barobariga + QQS miqdorida bank xizmati uchun haq undiriladi. Soliq to'lovlari bundan mustasno.

5.10. Bank aloqa vositalari orqali aloqa qilish, ma'lumot berish va x.k.lar uchun mijozning _____ raqamli uyali aloqa vositasi orqali bog'lanadi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bir taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, amaldagi boshqa qonun xujjatlarida va mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2 Bankning javobgarligi:

6.3. Bank Mijoz hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga javobgardir.

6.4. Bank Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini noqonuniy ravishda oshkor qilganligi uchun javobgardir.

6.5. Mijozning so'roviga binoan uning hisobvarag'idan ko'chirmalar berilishida kamchiliklarga yo'l qo'yilmaydi. Ko'chirmada bank tomonidan uning haqqoniyligi qasddan buzib ko'rsatilgan taqdirda, mijoz bankka nisbatan e'tirozlarini Sud orqali hal etadi.

6.6. Bank Mijozning shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli ravishda bajarmaganligi uchun kreditorlarga to'lanishi lozim bo'lgan penyaning hisoblanishiga va undirilishiga javobgar bo'lmaydi.

6.7. Bank bank xizmatlarini taqdim etish shartlarining o'zgarishi haqidagi ma'lumot kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin mijozni xabardor qiladi.

6.8. Mijozning javobgarligi:

6.9. Mijoz hisobvarag'iga xato (noto'g'ri) kelib tushgan mablag'lar to'g'risida, u hisobvaraqdan ko'chirma olgandan so'ng 2 (ikki) ish kunida Bankka uni qaytarish to'g'risida to'lov topshiriqnomasi taqdim qilishi lozim.

6.10. Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun javobgardir.

6.11. Mijoz naqd pul mablag'larini o'z vaqtida kassasiga kirim qilish va belgilangan maqsadlar uchun sarflashi hamda kassa intizomiga rioya etilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.12. Bankka taqdim qilingan xujjatlar, ularda qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga va haqqoniyligiga Mijoz javobgardir.

6.13. O'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir xujjatlarni bankning birinchi talabi bilan to'liq hamda sifatli holatda bankka taqdim qilinishi uchun javobgardir.

7. ALOHIDA SHARTLAR

7.1 Mijoz bankdagi hisobvaraqda turgan o'z pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi.

Bank Mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas.

7.2 Bank va Mijoz o'rtasidagi mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.

7.3 Mijozning hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni o'tkazish tartibi kelishuvchi tomonlar uchun majburiy bo'lgan Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy xujjatlari bilan belgilanadi.

7.4 Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

a) bank mijozi tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov xujjatlari taqdim qilinganda (to'lovlar mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov xujjatlarining rasmiylashtirishida yo'l qo'yilgan nuqsonlar natijasida kechiktirilganda, naqd pul olish uchun zarur bo'lgan to'lov xujjatlari o'z muddatida taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan

xujjatlarda noaniqliklar va xatoliklar mavjud bo'lganda), shuningdek, xalqaro amaliyotlar bo'yicha tomonlardan biri xalqaro sanksiyalarga duchor bo'lganda.

b) qonunchilik xujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra bank yoki mijoz hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar to'xtatilganda.

7.5. Bank mijozning hisobvarag'idan milliy yoki xorijiy valyutalarda o'tkazilayotgan yoki kirim qilinayotgan mablag'larning milliy yoki horijiy tashkilotlar sanksiyalari asosida to'xtatib qo'yilishi (muzlatilishi, musodara qilinishi, qaytarib yuborilishi va.h.k.) bo'yicha javobgar emas.

8. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1 Shartnoma tuzilganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko'rinishlari, urush, epidemiya, karantin, epizotiya, banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlar, bank ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, bankda buxgalteriya va hisobvaraq amaliyotlarining to'xtab qolishi, kompyuter texnikasining nosoz holatga kelishi yoki bankda elektr energiyasi bo'lmasligi hamda shu kabi oldini olish imkoniyati bo'lmagan hodisalar yoki amaldagi qonunchilik xujjatlarining bekor bo'lishi yoxud ularga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda shartnomaning tomonlaridan hech biri javobgar bo'lmaydilar.

9.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

9.1 Mazkur shartnoma imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan bo'lib, tomonlarning tashabbusi bilan yoki sud tartibida bekor qilingunga qadar amalda bo'ladi.

9.2 Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning kelishuviga muvofiq faqat yozma ravishda kiritiladi. Shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

9.3 Mazkur shartnoma Mijozning arizasiga ko'ra hohlagan vaqtda Mijoz tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlar to'la amalga oshirilgandan so'ng, o'rnatilgan tartibda bekor qilinishi mumkin.

9.4 Ushbu shartnoma bankning talabi bilan faqatgina sudning qaroriga binoan ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

9.5 Shartnoma bekor qilingandan keyin mijozning hisobvaraqdagi pul mablag'larining qoldig'i uning tegishli yozma arizasiga asosan kechi bilan 7 (etti) kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi. Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijozning hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi. Shartnoma bekor qilingan sanadan e'tiboran 7 ish kuni mobaynida Mijoz mablag'larni boshqa hisobvaraqa o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, Bank mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini 29842-«Harakatsiz depozitlar» hisobvarag'iga o'tkazadi.

9.6 Mijozning asosiy hisobvarag'i, ushbu Mijozga tegishli boshqa hisobvaraqlar yopilgandan keyingina yopiladi.

9.7 Mijoz olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachalik - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul amaliyotlarini o'tkazish bilan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan yoki qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qilingan Ustav jamg'armasini shakllantirmaganligi sababli tugatish komissiyasi tomonidan tugatilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, shartnoma bekor qilinadi.

10. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

10.1 Shartnoma shartlari va ularning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, nizo tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvga muvofiq hal etiladi.

Muzokaralar natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizolar qonunchilikka muvofiq Sud tartibida ko'rib chiqiladi.

10.2 Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro da'volari bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

10.3 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

11. TOMONLARNING POCHTA MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Bank»

«Mijoz»

«Madad Invest bank» ATB

Manzil: Farg'ona shahar Mustaqillik 312-uy

Tel: 73-241-70-33 73-241-70-37

Faks: 73-241-70-32

Bank rekvizitlari: Bank kodi: 01142

X/R: 19909000500001142001

STIR: 207246047

Boshqaruvchi _____

Bosh hisobchi _____

Xuquqshunos _____

Manzil: _____

Tel: _____

Faks: _____

Bank rekvizitlari: Bank kodi: 01142

X/R _____

STIR _____

Rahbar _____